ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-8

ISLOMDA OILA MUQADDASLIGI VA UNING IJTIMOIY BARQARORLIKDAGI O‘RNI

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti 403-guruh talabasi
Saydillayeva Jannatxon

Annotatsiya: Maqolada Islomda oila institutining muqaddasligi, uning ilohiy asoslari va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati yoritiladi. Qur’on va hadislar asosida nikohning diniy mazmuni tahlil qilinadi. Oilaning ijtimoiy barqarorlikka ta’siri statistik va sotsiologik ma’lumotlar yordamida ko‘rsatiladi. Oila qadriyatlarini mustahkamlash jamiyat barqarorligini oshirishning muhim omili sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Islom, oila, muqaddaslik, ijtimoiy barqarorlik, nikoh, ajrashish statistikasi, oilaviy qadriyatlar.

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, har qanday madaniyat va dinning markazida turadi. Butun dunyoda oilaviy qadriyatlar inqirozi kuchayib borayotgan bir vaqtda, insoniyat oilaning jamiyat hayotidagi o‘rnini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘lmoqda. Islomda oila nafaqat biologik va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish vositasi, balki ma’naviyat, muhabbat va rahm-shafqat o‘chog‘i hisoblanadi.

Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar oilaviy barqarorlikning pasayishi, ajrashishlar ko‘payishi, oilaviy mas’uliyatning susayishi kabi muammolar bilan yuzlashmoqda. Bu muammolar esa bevosita jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, oila institutini mustahkamlashning diniy, ma’naviy va madaniy asoslarini o‘rganish dolzarblik kasb etmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi Islomning oilaviy qadriyatlar tizimini, uning muqaddasligining manbalarini va bu muqaddaslikning jamiyatning sog‘lom va barqaror rivojlanishiga qo‘shayotgan ulkan hissasini ilmiy jihatdan yoritishdan iborat. Tadqiqot quyidagi masalalarni ochib berishga qaratilgan:

- Islomda oila muqaddasligining diniy asoslari
- Oilaviy barqarorlikning ijtimoiy barqarorlikka ta’siri
- Oila va jamiyat salomatligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik
- Zamonaviy jamiyatdagı oilaviy qadriyatlar inqiroziga islomiy yechimlar

I Islomda oila muqaddasligining diniy asoslari

Islomda oilaning muqaddasligi uning ilohiy manbalarga asoslanganligidan kelib chiqadi. Alloh taolo Qur’oni karimda oilani O‘zining ulug‘vorlik belgilaridan biri sifatida keltiradi. Rum surasi 21-oyatda quyidagicha marhamat qilinadi:

وَمِنْ آيَاتِهِ أَنْ خَلَقَ لَكُمْ مِنْ أَنْفُسِكُمْ أَزْوَاجًا لِتَسْكُنُوا إِلَيْهَا وَجَعَلَ بَيْنَكُمْ مَوَدَّةً وَرَحْمَةً إِنَّ فِي ذَٰلِكَ لَآيَاتٍ لِقَوْمٍ يَتَفَكَّرُونَ

“Va sizlarga sokinlik topishingiz uchun o‘zingizdan juftlar yaratganligi va oralaringizda sevgi va marhamatni solib qo‘ygani (ham) Uning oyat-belgilaridandir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan qavmlar uchun oyat-belgilar bordir”.[1] Bu oyat nikoh va oilaviy hayotning sakiynat manbayi ekanligini ham ta’kidlaydi.

Hadisi shariflarda esa nikoh payg‘ambarlar sunnati ekanligi ta’kidlanadi, nikohga va oilada chiroyli muomalada bo‘lishga targ‘ib qilinadi.

[1] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 4-juz. – T.: “Sharq”, 2008. – B. 475.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-8

عنْ عَائِشَةَ قَالَتْ : قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ : " النِّكَاحُ مِنْ سُنَّتِي، فَمَنْ لَمْ يَعْمَلْ بِسُنَّتِي فَلَيْسَ مِنِّي[2]

Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar:

"Nikoh mening sunnatimdir, kim mening sunnatimdan yuz o'girsa, mendan emasdir".

عنْ عَائِشَةَ ، قَالَتْ : قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ : " خَيْرُكُمْ خَيْرُكُمْ لِأَهْلِهِ، وَأَنَا خَيْرُكُمْ لِأَهْلِي

Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar:

"Yaxshilaringiz ahliga yaxshilaringizdir va men axliga yaxshingizman" (Termiziy rivoyati).[3]

Nikoh Islomda oddiy fuqarolik shartnoma emas, balki Alloh oldida olingan muqaddas ahd hisoblanadi. Islom dinida nikoh shu qadar muqaddaski, uni buzish – ajrashishga osonlikcha yo'l qo'yilmaydi. Taloq Alloh taologa mahbub bo'lmagan ishlardan hisoblanadi va unga faqatgina eng so'ngi chora sifatida ruxsat beriladi.

عَنِ ابْنِ عُمَرَ ، عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ : " أَبْغَضُ الْحَلَالِ إِلَى اللَّهِ تَعَالَى الطَّلَاقُ

Ibn Umar roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: "Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Alloh azza va jallaga eng yomon ko'rilgan halol – taloqdir", dedilar. (Abu Dovud va hokim rivoyati).[4]

Shu bilan birga taloq qo'llangan taqdirda ham tomonlar yaxshilik bilan, urush-janjallarsiz madaniy tarzda ajralishlari, begona shaxslarga bir-birlarining ayb-nuqsonlarini oshkor qilmasliklari shart. Taloq surasi 2-oyatda quyidagicha marhamat qilinadi:

فَإِذَا بَلَغْنَ أَجَلَهُنَّ فَأَمْسِكُوهُنَّ بِمَعْرُوفٍ أَوْ فَارِقُوهُنَّ بِمَعْرُوفٍ

"Va ular muddatlariga yetsalar, yaxshilik bilan ushlanglar yoki yaxshilik bilan ajralinglar."

O'tgan solih zotlardan birlari o'z xotinlarini taloq qilganlarida, kishilar nima aybi uchun bu ayol taloq qilinganini so'rashibdi. Shunda haligi zot: "Nima uchun aybini ochishim kerak? Agar qayta yarashib ketsam, o'z xotinimni yomonlagan bo'laman, yarashmasam, birovning xotinini yomonlagan bo'laman", degan ekanlar. Islomda har bir narsa, hatto ajralish ham yaxshilik bilan amalga oshishi kerak.[5]

Yuqoridagilardan xulosa shuki, oilaning muqaddasligi oyatlar va hadislarda sobit bo'lgan. Har bir musulmon oila qurish fazilati, ahamiyati, undan ajralish tartibi va shartlari haqida o'rganishi va amal qilishi lozim.

II Oilaviy barqarorlik va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik

Oila – nafaqat jamiyatning asosiy bo'g'ini, balki uning ma'naviy va axloqiy barqarorligining kafolatidir. Oilaviy barqarorlik bilan jamiyatdagi barqarorlik o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Mustahkam oilalar – mustahkam jamiyatning asosidir. Agar jamiyatda ajralishlar soni ko'paysa jamiyat poydevoriga putur yetadi. Quvonarli tarafi boshqa qatlamlarga nisbatan dindor oilalarda ajralishlar soni ancha kam. Buni quyidagi statistik ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, diniy e'tiqodi kuchli bo'lgan oilalarda ajrashish darajasi ancha past. Ayniqsa musulmonlar orasida qolgan dinlarga nisbatan ajralish ancha kamligi bilan ahamiyatli. Masalan, AQShda umumiy ajrashish darajasi Protestant xristianlarda 51%, Katoliklar orasida 19%, Buddistlar orasida 10%, Ateistlar orasida 11% bo'lgani holda Musulmonlarda bu ko'rsatkich 8% ni tashkil etmoqda.[6]

O'zbekistonda esa so'nggi yillarda tuzilayotgan nikohlar soni aholining o'sish sur'atiga mos ravishda ortmayapti, ajralishlar soni esa ko'paymoqda. Quyida bu haqida statistik ma'lumotlar keltirilgan:

---

[2] سنن ابن ماجه. مجلد٣. كتاب النكاح. صحيفة ٣٠٠.حديث ١٨٤٦

[3] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – T.: "Hilolnashr", 2014. – B. 235

[4] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 13-juz – T.: "Hilolnashr", 2023. – B. 309

[5] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 6-juz – T.: "Hilolnashr", 2023. – B. 183-184

[6] https://matlawyers.com/the-relationship-between-religion-and-divorce/ saytga kirilgan vaqt: 24.08.2025

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-8

“2024-yilda O‘zbekistonda 271,8 mingta nikoh qayd etilgan. Bu kamida 15 yillik minimum ko‘rsatkich hisoblanadi. Hatto 2010-yilda ham 292,3 ming nikoh ro‘yxatga olingan. Ya’ni nikohlar aholi soniga mutanosib ravishda o‘smagan. 2024-yilda mamlakatda 45,1 ming oila nikohdan ajralgan (2023-yilda 49,2 ta). Nikohdan ajralishlarning eng ko‘p ulushi Toshkent shahri (5,9 mingta), Farg‘ona (4,8 mingta), Andijon (4,8 mingta), Samarqand (4,6 mingta) va Toshkent (4,6 mingta) viloyatlarida qayd etilgan”[7].

Ajralishlar soni ortishi jamiyatda turli salbiy oqibatlarga olib keladi, jumladan jinoyatchilikning ortishiga ham ta’sir qiladi. Chunki mustahkam oilalar yoshlarning jinoyatchilik yo‘ligi kirib qolishidan to‘suvchi eng birinchi omil hisoblanadi. Oilalar ajralishi oqibatida esa jinoyatchilikka yo‘l ochiladi. Britaniyada o‘tkazilgan milliy tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ota-onasi ajrashgan yoshlarda jinoyatchilik darajasi to‘liq oilalarga nisbatan 2-3 baravar yuqori[8]. Ota-onasi tomonidan tarbiyalanmagan yoshlarda giyohvand moddalar iste’mol qilish ehtimoli 70% ga ko‘p[9].

Yuqoridagi salbiy oqibatlar kelib chiqmasligi uchun jamiyatimizda oila institutini har taraflama muhofaza qilishimiz, moddiy va ma’naviy jixatdan qo‘llab-quvvatlashimiz lozim.

III Zamonaviy jamiyatda oila muqaddasligini saqlash usullari

Hozirgi globallashuv zamonida g‘arb madaniyati va milliy qadriyatlarimizga mutlaqo teskari bo‘lgan boshqa ommaviy madaniyatlar jamiyatimizning muqaddas negizi bo‘lgan oila qo‘rg‘oniga tahdid solmoqda. Globalizatsiya, individualizm, materializm kabi omillar oilaviy aloqalarni zaiflashtirmoqda. Ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar orqali ayrim mashhur insonlar oila haqida soxta baxt illuziyasini yaratishga urinish orqali yosh oilalarda va bo‘lajak oila quruvchilar ongida noto‘g‘ri fikrlar shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday sharoitda quyidagi tavsiyalar orqali oila mustahkamligini saqlab qolish, ajralishlar sonini kamaytirishda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

1. Diniy tarbiya va ma’rifat: Oilalarda diniy tarbiya va ta’limni kuchaytirish orqali yoshlarning oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan hurmatini oshirish mumkin. Masjidlar, madrasalar va diniy markazlar oilaviy maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yishlari kerak.
2. Oilaviy maslahat xizmatlari: Ajrashishdan oldin oilalarni yarashtirish va maslahat berish uchun ixtisoslashtirilgan markazlar tashkil etish zarur. Islomiy psixologiya va maslahat berish sohasidagi mutaxassislar oilaviy muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynashi mumkin.
3. Ijtimoiy media va targ‘ibot: Oilaviy qadriyatlarning ahamiyati haqida jamoatchilikni xabardor qilish va ularni o‘rganish uchun ijtimoiy media va ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish kerak.
4. Qonuniy himoya: Davlat tomonidan oilaviy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlovchi va himoya qiluvchi qonunlar qabul qilinishi kerak. Nikohning muqaddasligini himoya qilish va ajrashishning oldini olish uchun qonuniy choralar ko‘rilishi lozim.
5. Nikoh oldidan masjidlar qoshida, tajribali imomlar yordamida, qisqa muddatli diniy-ma’rifiy kurslar tashkil etish. Bu kurslarda Qur’on, hadis, oilaviy huquq, er-xotin huquq va majburiyatlari o‘rgatilsa, yoshlar oilaga ongli ravishda qadam qo‘yadi. Kursni muvaffaqiyatli bitirganlargina nikohdan o‘tishlari mumkin bo‘ladi.

Xulosa va takliflar

[7] https://daryo.uz/2025/01/31/ozbekiston-demografik-holati-tahlili-tugilish-va-nikohlar-kamayib-olimlar-kopaydi
[8] https://www.ojp.gov/ncjrs/virtual-library/abstracts/young-people-and-crime
[9] https://digital.nhs.uk/data-and-information/publications/statistical/smoking-drinking-and-drug-use-among-young-people-in-england/2014

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-8

Islom ta'limotida oila muqaddas dargoh sifatida qaraladi va uning mustahkamligi jamiyat barqarorligining eng muhim kafolatlaridan biri sifatida ta'kidlanadi. Zero, oilaviy barqarorlikning zaiflashuvi — ajrimlar ko'payishi, farzand tarbiyasidagi uzilishlar, ijtimoiy muhitdagi beqarorlik va turli illatlarning kuchayishiga sabab bo'ladi. Aksincha, mehr-oqibat va sabrga asoslangan mustahkam oila jamiyatda tinchlik, totuvlik, hamjihatlik va farovonlikni ta'minlaydi. Qur'on va hadisda oila muqaddasligi, sabr, mehr-shafqat kabi qadriyatlar asosiy tamoyil sifatida belgilangan bo'lsa-da, amaliy hayotda ushbu qadriyatlarga yetarlicha amal qilinmasligi natijasida ko'plab muammolar yuzaga kelmoqda. Shu bois diniy ta'limotlarni hayotga tatbiq etish, huquqiy asoslarni mustahkamlash, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotni kuchaytirish oilaviy nizolar va ajrimlar sonini kamaytirishga, ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Demak, oilani asrab-avaylash nafaqat shaxsiy baxt va farovonlik, balki umumjamiyat oldidagi ulkan mas'uliyatdir. Har bir mustahkam oila – barqaror jamiyatning poydevori, barqaror jamiyat esa millatning kelajagi, taraqqiyoti va istiqboli garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: "Sharq", 2008.
2. Sunan Ibn Moja. Jild 3. Kitob an-Nikoh, s. 300, hadis 1846.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – Toshkent: "Hilolnashr", 2014. – B. 235.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 13-juz. – Toshkent: "Hilolnashr", 2023. – B. 309.
5. The Relationship between Religion and Divorce. [Elektron manba]. – URL: https://matlawyers.com/the-relationship-between-religion-and-divorce/ (murojaat qilingan sana: 24.08.2025).
6. O'zbekiston demografik holati tahlili: tug'ilish va nikohlar kamayib, o'limlar ko'paydi. [Elektron manba]. – URL: https://daryo.uz/2025/01/31/ozbekiston-demografik-holati-tahlili-tugilish-va-nikohlar-kamayib-olimlar-kopaydi
7. Young People and Crime. [Elektron manba]. – URL: https://www.ojp.gov/ncjrs/virtual-library/abstracts/young-people-and-crime
8. Smoking, Drinking and Drug Use among Young People in England, 2014. [Elektron manba]. – URL: https://digital.nhs.uk/data-and-information/publications/statistical/smoking-drinking-and-drug-use-among-young-people-in-england/2014